

The logo for A-PAY is located in the top left corner. It consists of the text "A-PAY" in a stylized, blocky font, where the letters are white with a dark blue outline. The text is centered within a light yellow rounded rectangle that has a dark blue border.

A-PAY XIZMATINING MAXFIYLIK SIYOSATI

Toshkent

A decorative horizontal border at the bottom of the page. It features a repeating pattern of geometric shapes: dark blue circles, light yellow circles, dark blue squares, and light yellow squares, arranged in a grid-like fashion.

Mazkur Maxfiylik siyosati "A-PAY" Xizmati, uning dasturlari va uning mahsulotlaridan foydalanish paytida Foydalanuvchi haqida "CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" MChJ olishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi.

"A-PAY" Xizmatidan foydalanishdan oldin Foydalanuvchilar ushbu Maxfiylik siyosati shartlari bilan tanishishlari kerak.

1. ATAMALAR TA'RIFI

- 1.1. "Shaxsiy ma'lumotlar"** - to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aniqlangan yoki aniqlanishi mumkin bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxsga (shaxsiy ma'lumotlar subyektiga) tegishli har qanday ma'lumot.
- 1.2. "Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash"** - avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan shaxsiy ma'lumotlar bilan amalga oshiriladigan har qanday harakat (amaliyot) yoki harakatlar (amaliyotlar) majmui, shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayd etish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), shaxsiylashtirish, blokirovka qilish, o'chirish, yo'q qilishni o'z ichiga oladi.
- 1.3. "Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi"** - Operator yoki shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs uchun shaxsiy ma'lumotlar subyektining rozilgisiz yoki boshqa qonuniy asoslarsiz tarqatilishining oldini olish uchun rioya qilinishi kerak bo'lgan majburiy talab.
- 1.4. "Xizmat foydalanuvchisi"** - "A-PAY" Xizmatidan internet orqali yoki internetsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan va Sayt ma'lumotlari, materiallari va mahsulotlaridan foydalanadigan shaxs.
- 1.5. "Shaxsiy ma'lumotlar operatori" yoki "Operator"** - "CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" mas'uliyati cheklangan jamiyati
- 1.6. "Axborot"** - taqdim etish shaklidan qat'i nazar, ma'lumot (xabarlar, axborotlar).

2. UMUMIY QOIDALAR

- 2.1. Foydalanuvchi tomonidan "A-PAY" Xizmatidan foydalanish Maxfiylik siyosati va Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash shartlarini qabul qilganligini anglatadi. Maxfiylik siyosati shartlariga rozi bo'lmagan taqdirda, Foydalanuvchi "A-PAY" Xizmatidan foydalanishni to'xtatishi kerak.
- 2.2. Maxfiylik siyosati Operatorning "A-PAY" Xizmatida ro'yxatdan o'tishda, axborot jo'natmasiga obuna bo'lishda, Xizmatdan foydalanish jarayonida Operatorning so'roviga binoan Foydalanuvchi taqdim etadigan shaxsiy ma'lumotlarini oshkor etmaslik va maxfiyligini muhofaza qilish rejimini ta'minlash majburiyatlarini belgilaydi.

- 2.3. Ushbu Maxfiylik siyosati doirasida qayta ishlashga ruxsat berilgan shaxsiy ma'lumotlar Foydalanuvchi tomonidan taqdim etiladi (Foydalanuvchi Operatorga veb-saytlari, uchinchi shaxslar xizmatlari orqali kirish huquqini beradigan shaxsiy ma'lumotlar yoki Xizmatdan foydalanish jarayonida Foydalanuvchi tomonidan joylashtiriladigan shaxsiy ma'lumotlar). Shu tarzda olingan shaxsiy ma'lumotlar, xususan, familiyasi, ismi, otasining ismi, telefon raqami, bank kartasi raqami, elektron pochta manzili va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Foydalanuvchiga, uchinchi shaxslarning ruxsatisiz yoki uchinchi shaxslarning bu kabi shaxsiy ma'lumotlari Foydalanuvchi tomonidan ommaviy axborot manbalaridan olinmagan bo'lsa uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini bunday tarzda tarqatish uchun taqdim etish taqiqlanadi. Operator foydalanuvchilarning olingan shaxsiy ma'lumotlari bilan faqat Saytni yaratish va undan foydalanish maqsadiga erishish bilan bog'liq barcha qonuniy zarur harakatlarni amalga oshirishga haqli.

3. FOYDALANUVCHINING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI TO'PLASH

- 3.1. Operator Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish huquqiga ega:
 - 3.1.1. "A-PAY" Xizmatida ro'yxatdan o'tgan Foydalanuvchini keyinchalik avtorizatsiya qilish, uning to'lovlari, o'tkazmalarini amalga oshirish, buyurtmasini rasmiylashtirish va boshqa harakatlar uchun identifikatsiya qilish.
 - 3.1.2. Foydalanuvchiga "A-PAY" Xizmatining shaxsiy ma'lumotlariga kirishni ta'minlash.
 - 3.1.3. Foydalanuvchi bilan teskari aloqa o'rnatish, shu jumladan "A-PAY" Xizmatidan foydalanish, va Foydalanuvchining so'rovlari va buyurtmalarini qayta ishlash bo'yicha xizmatlarni taqdim etish, bildirishnomalar, so'rovlar jo'natish.
 - 3.1.4. Agar foydalanuvchi hisob yozuvi yaratishga rozilik bildirgan bo'lsa, "A-PAY" Xizmatining qismlaridan foydalanish uchun hisob yozuvini yaratish.
 - 3.1.5. Foydalanuvchiga maxsus takliflar, Operatorning mahsulotlari va xizmatlari, Operator hamkorlari haqida ma'lumot, yangiliklar jo'natmalarini taqdim etish.
 - 3.1.6. Statistik ma'lumotlarni to'plash.

4. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH USULLARI VA MUDDATLARI

- 4.1. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish muayyan bir muddatsiz, har qanday qonuniy yo'l bilan, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimlarida avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan amalga oshiriladi.
- 4.2. Foydalanuvchi, Operator shaxsiy ma'lumotlarni ushbu Maxfiylik siyosatining 3-bo'limida nazarda tutilgan maqsadlarda va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq uchinchi shaxslarga o'tkazish huquqiga ega ekanligiga rozilik bildiradi.

- 4.3. Foydalanuvchi ushbu bilan, Operator "A-PAY" Xizmatidan foydalanishida Foydalanuvchi tomonidan taqdim etiladigan uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini olishi va ulardan Xizmatning muayyan funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalanishi mumkinligi to'g'risida xabardor qilinadi va shunga rozilik bildiradi, bunda Foydalanuvchi, Xizmatdan Foydalanuvchi tomonidan foydalanishda ma'lumotlari taqdim etiladigan uchinchi shaxslarning Operator tomonidan ushbu Siyosatda nazarda tutilgan maqsadlarda qayta ishlash uchun, shuningdek ushbu Siyosatda sanab o'tilgan hollarda bunday ma'lumotlarni uzatish uchun qayta ishlashga roziligi mavjudligini kafolatlaydi.
- 4.4. Bundan tashqari, Foydalanuvchi ushbu bilan, Operator "A-PAY" Xizmatidan foydalanganda Foydalanuvchining harakatlariga oid statistik shaxsizlashtirilgan (Foydalanuvchiga ulanmagan) ma'lumotlarni olishi mumkinligi haqida xabardor qilinadi va shunga rozilik bildiradi.
- 4.5. Operator Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlariga noqonuniy yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, nusxalash, tarqatish, shuningdek uchinchi shaxslarning boshqa noqonuniy harakatlaridan muhofaza qilish uchun zarur tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.
- 4.6. Foydalanuvchi Operatorga bu haqda bildirishnoma yuborish orqali shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligini qaytarib olishga haqli, Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari Operatorga uning Foydalanuvchi oldidagi majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan hollar bundan mustasno.
- 4.7. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan, uning maxfiyligi saqlanib qoladi, Foydalanuvchi o'zi haqidagi ma'lumotlarni cheklanmagan miqdordagi shaxslarga umumiy kirish uchun ixtiyoriy ravishda taqdim etgan hollar bundan mustasno. Alohida xizmatlardan foydalanganda, Foydalanuvchi o'z shaxsiy ma'lumotlarining muayyan bir qismi hamma uchun ochiq bo'lib qolishiga rozi bo'ladi.
- 4.8. Foydalanuvchi Maxfiylik siyosatida ko'rsatilgan maqsadlar uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar haqida haqqoniy axborotlarni taqdim etishi shart. Ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, Foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi axborotlarni yangilashi, to'ldirishi shart.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. O'z majburiyatlarini bajarmaganlikda aybdor bo'lgan Operator shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish munosabati bilan Foydalanuvchi tomonidan ko'rilgan haqiqiy zarar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.
- 5.2. Operator Foydalanuvchi oldida quyidagilar sababli yetkazilgan zararlar uchun javobgar emas: "A-PAY" Xizmatidan foydalanish yoki foydalana olmaslik, Foydalanuvchining kommunikatsiyalariga ruxsatsiz kirish; "A-PAY" Xizmatidagi har qanday uchinchi shaxsning xatti-harakatlari.
- 5.3. Operator Foydalanuvchi tomonidan "A-PAY" Xizmatida joylashtirilgan har qanday axborot uchun javobgar emas.

6. QO'SHIMCHA SHARTLAR

- 6.1. Ushbu maxfiylik siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq har qanday nizo yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Foydalanuvchi va Operator ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar. Nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda hal qilinishi kerak. Sud organlariga murojaat qilishdan oldin nizoni hal qilish uchun da'vo tartibi majburiydir. Da'voni oluvchi da'vo olingan kundan boshlab 15 kalendar kun ichida uni ko'rib chiqib natijalari to'g'risida da'vogarni yozma ravishda xabardor qiladi.
- 6.2. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash shartlari bo'yicha ushbu rozilik, foydalanuvchi tomonidan Operatorning elektron pochta manziliga tegishli bildirishnoma yuborish, shuningdek, Operator tashkilotining yuridik manziliga yozma murojaat yuborish yo'li bilan qaytarib olinmaguncha noma'lum muddatga amal qiladi.
- 6.3. Operator ushbu Maxfiylik siyosatiga Foydalanuvchining rozilgisiz, uni hech qanday maxsus ogohlantirmasdan o'zgartirishlar kiritishga haqli. Maxfiylik siyosati uni www.a-pay.uz veb-manzilida Saytda joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 6.4. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlashda Operator O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.
- 6.5. Mazkur Siyosat, Foydalanuvchi va Operator o'rtasidagi ushbu Siyosatni qo'llash bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlar, shuningdek, ushbu Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.
- 6.6. Amaldagi Maxfiylik siyosati ochiq va ommaviy hujjat hisoblanadi, u internetda www.a-pay.uz manzilida joylashtirilgan.

TO'LOV TASHKILOTI «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MCHJ. «A-PAY» ELEKTRON PULLAR TIZIMI OPERATORI.

100090, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
A. Qahhor ko'chasi, 9-tor ko'cha, 1a-uy
STIR: 306 344 019
h/r: 2020 8000 4050 6594 4001
«Trastbank» XAB OPERB
MFO: 00491,
Bank STIRi: 201 055 090
OKED: 58290
Tel: (+99855) 500 11 10